

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN
DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

BUTAYEV TUXTASIN XXX

**MUHANDISLIK TA’LIM SOHALARI TALABALARIDA
TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari bo‘yicha)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Contents of the of doctoral (DSc) dissertation Abstract

Butayev Tuxtasin XXX

Muhandislik ta’lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 3

Бутаев Тухтасин XXX

Технологии развития предпринимательских компетенций у студентов инженерных специальностей..... 27

Butayev Tukhtasin

Technologies for the development of entrepreneurial competencies among students of engineering specialties..... 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 58

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2019.T.90.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI FAN
DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK
ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

BUTAYEV TUXTASIN XXX

**MUHANDISLIK TA’LIM SOHALARI TALABALARIDA
TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**

13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika fanlari bo’yicha)

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2026

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim; fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Ped625. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdtu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi

Kasimaxunova Anarxan Mamasadiqovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayev Safibullo Xabibullayevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Ergashev Sirojiddin Fayozovich
texnika fanlari doktori, professor

Maxsudov Po'latjon Maxsudovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

"TIQXM" milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.90.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "31" "01" kuni soat 1300 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160103, Namangan viloyati, Namangan shahar, Islom Karimov ko'chasi 12-uy - uy. Tel.: (99869) 234-15-23. 234 14 30; faks: (99869) 234 14 30; e-mail: info@namdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160103, Namangan viloyati, Namangan shahar, Islom Karimov ko'chasi 12-uy - uy. Tel.: (99869) 234-15-23. 234 14 30; faks: (99869) 234 14 30.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ da tarqatildi.

(2026-yil "___" _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).



N.G'. Bayboboev
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

V.M.Turdaliyev
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

O.S.Abdullayeva
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyatining ilmiy-texnik taraqqiyoti, ta'lim, fan va ishlab chiqarish sohalaridagi ulkan islohotlar, ilmiy-texnik axborotlar tizimining tezkor rivojlanishi va takomillashuvi, ta'lim mazmuniga kontekstli ta'limni tatbiq etish bilan ifodalanadi. Ta'lim dasturlarining sifat jihatidan yangilanishi sharoitida, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini joriy etish, kontekstli ta'lim asosida o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini kompleks qo'llash hamda didaktik vositalarning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Bu borada UNESCO tomonidan, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"ga, alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Sorbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration) va kasbiy malakalar to'g'risidagi Lissabon Konvensiyalari, kasbiy kompetentligi yuqori kadrlar tayyorlashning innovatsion yo'nalishlarini belgilashda, muhim ahamiyat kasb etadi. Jahonda ta'lim taraqqiyotining zamonaviy bosqichi globallashtirishning jadalligi, faol hamkorlik, integratsiyalashuvning barqarorligi bilan belgilanadi. OTMdagi muhandislik ta'lim sohalarida talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik ta'minotini mazmungan rivojlantirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli kontekstli ta'limning semiotik, imitatsiya, ijtimoiy modellarini ishlab chiqish hamda umumkasbiy fanlarni o'qitishning majmuaviy tuzilmasi komponentlarini uzviylashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Kontekstli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislik ta'lim sohalarida mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini mustaqil-o'quv, kvazi-professional va amaliy faoliyat kabi kasbiy va ta'lim faoliyati integratsiyasini ta'minlash hamda didaktik ta'minotini rivojlantirish, shu bilan birga, kontekstli ta'lim muhitida bo'lajak muhandislik ta'lim sohalarida mutaxassislarini amaliy - tadbirkorlik kompetentligining takomillashtirilgan darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish va o'qitish metodlarini umumlashtirish asosida mutaxassislarini tayyorlash zaruratini taqozo qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, aynan xususiy tadbirkorlikni va kichik biznesni rivojlantirish orqali, davlat iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan o'sishiga erishish mumkin. Oliy ta'lim tizimi biznes asoschilarining yangi avlodlarini yaratishga va rivojlantirishga yordam beradigan akademik muhitni ta'minlashi kerakligi keng e'tirof qilinib kelinadi. Xususan, jahon miqyosida yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va qo'llab quvvatlashga qaratilgan "Founders4School" (Buyuk Britaniya), Yosh tadbirkorlar akademiyasi (The Young Entrepreneurs Academy) hamda Yoshlar tadbirkorlik dasturi (Youth Entrepreneurship Program, Kanada), Yoshlar tadbirkorlik dasturi (Kaliforniya), "AMIDEAST" (Misr), Yosh tadbirkorlar akademiyasi (Nyu-York), "Siz tadbirkorsiz (Ты предприниматель)", "Men uchun biznes (Бизнес для меня)", "Start up, Don!" (Rossiya) kabi dasturlar amalga oshirilayotgani ham bejizga emas. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida dunyoning yetakchi OTM, yetuk mutaxassislar tayyorlash uchun, ta'limning tadbirkorlikka yo'naltirilgan shakllaridan foydalanib kelishmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, belgilab berilgan. Bu esa OTM, muhandislik ta'lim sohalarida talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda kontekstli ta'limni amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi. OTMning muhandislik ishi ta'lim sohasi bo'yicha hozirgi va kelgusi mehnat bozorlariga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar, hamda bo'lajak muhandislarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi pedagogik nazariy va amaliy ilmiy tadqiqotlarning etarli emasligi, shuningdek, OTMda bosqichma-bosqich "Universitet-3" konsepsiyasini joriy etishning dolzarbligi «Muhandislik ta'lim sohalarida talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari» mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish masalasining dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-sonli "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"¹, 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"², 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"³, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ farmonlari, 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁶, 2020-yil, 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»⁷gi Qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-son "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktyabrdagi PQ-4851-son "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni it-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot Oʻzbekiston Respublikasida oliy taʼlimni tizimli isloh qilishning “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish” ustuvor yoʻnalishi hamda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi⁸. Ijtimoiy sohadagi eng ustuvor yoʻnalishlarning aksariyati, xorijiy universitetlardagi taʼlim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining shakllari boʻyicha, tadqiqotlar majmuidir. Yevropa universitetlarining erishgan yutuqlarini eʼtirof etib, AQSh universitetlarida taʼlim, ilm-fan va sanoatning integratsiyalashuvi uchun tasdiqlangan modellar ularning hayotiyligini, shuningdek, ularning istiqbollari asoslanganligini taʼkidlaymiz. Texnik oliy taʼlimda, muhandislik taʼlim sohasining tadbirkorlik faoliyati bilan oʻzaro integratsiya masalalariga bagʻishlangan ilmiy izlanishlar, dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va OTM, jumladan, Massachusetts texnologiya instituti (AQSh), Stenford universiteti (AQSh), Texas universiteti (AQSh), Manchester Metropolitan universiteti (AQSh), London universiteti (Buyuk Britaniya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Lyudvig-Maksimilians-Myunxen universiteti (Germaniya), Zhejiang universiteti (Xitoy), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda. Massachusetts texnologiya instituti (AQSh), Stanford universiteti (AQSh) oliy taʼlimni muhandislik taʼlim sohasining tadbirkorlik faoliyati bilan oʻzaro integrativ yondashuv asosida rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish mexanizmlari asoslab berilgan; Humber texnologiya instituti (AQSh), Malayziya texnologiya universiteti (Malayziya), Tokio universiteti (Yaponiya)larida taʼlimning zamonaviy didaktik vositalari asosida, boʻlajak mutaxassislarda, kasbiy koʻnikmalarning rivojlanganligini taʼlim muassasalari va

8 Founders4Schools. [https://wwwFOUNDERS4SCHOOLS.org.uk/](https://wwwFOUNDERS4SCHOOLS.org.uk;); Young Entrepreneurs Academy. <https://www.mvcc.edu/cced/community-education/young-entrepreneurs-academy.php>; Amende, J., Greenway, S., Vega, L., & Nayak, R. (2021). Developing a Youth Entrepreneurship Program to Reach Latinx Youth. *Journal of Human Sciences and Extension*, 9(3), 2. <https://doi.org/10.54718/KXGT5268>; "AMIDEAST" (Миср). <https://www.amideast.org/egypt>, 29.Pfanner, E. (2012, September 19). Europe Aims to Encourage Young to Be Entrepreneurs//The New York Times; Small Business Saturday – A Big Day for Small Business (2010, November 18) // Extravaganzi, Drechsler, P. SMEs can lead the way for young entrepreneurs // The Times. <https://www.thetimes.co.uk/article/smes-can-lead-the-way-for-young-entrepreneurs-z5d0bvgtlnlx>; Хаустов, М.Ю. (2015). Механизм формирования предпринимательского потенциала: опыт Евросоюза и США. *Российское предпринимательство*, 16(16), 2573-2586. doi: 10.18334/rp.16.16.615; Kourilsky, M.L., Walstad, W.B. (1998). Entrepreneurship and female youth: knowledge, attitudes, gender differences, and educational practices. *Journal of Business Venturing*, 13(1), 77-88. doi: 10.1016/S0883-9026(97)00032-3; Бородкина, В.В., Москвина, А.В., Рыжкова, О.В., Улас, Ю.В. (2015). Государственная поддержка субъектов малого и среднего бизнеса северных стран: Канада, США, Финляндия, Швеция. *Российское предпринимательство*, 16(21), 3743–3764. DOI: 10.18334/rp.16.21.2074; H.Kalani, R.Rani, B.Z.Shah, M.R.Dahar, S.Joher, Ч.Шийи. Entrepreneurship education in european higher education institutions (heis): development, issues & scope. *International Journal of Sciences and Research*. Vol. 78 | No. 1/1 | Jan 2022; Рубин Ю.Б. (2015) Высшее предпринимательское образование в России: диагностика проблемы//Высшее образование в России. №11.М.: МПГУ. С.5-17; Чигиринская Н.В. (2015)

ishlab chiqarish korxonalarining o'zaro axborot almashinuvi bo'yicha integrativ texnologiyalar orqali baholash tizimi yaratilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: respublikamiz olimlaridan M.B.Artikova, Yo.Abdullayev, Sh.Yuldashev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, A.N.Samadov, I.V.Mishurova, O.Q.Xatamov, S.T.Toshaliyeva, M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjayev, D.R.Raxmatullayeva va boshqalar tamonidan kichik biznes, tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, huquqiy va moliyaviy masalalari o'rganib chiqilgan⁹.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan bozor iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorlash muammolari va biznes ta'limi masalalari V.I.Azar, A.M.Babich, E.V.Egorova, E.N. Jilsova, V.M.Zueva, G.P.Ivanova, R.P. Kolosova, L.I.Yakobson, V.V.Morozov, shuningdek, xorijiy olimlar E.Dolan, P.Drakker, R.Makkonel, F.Kotler, T.Peters, K.Rendall va boshqalarning asarlari mavjud. Tadbirkorlikning ijtimoiy-madaniy mohiyatini M.Veber, J.Shumpeter, V.Sombart, R.Likert, K.Argis, B.Karlof, F.Xaek o'rgangan.

So'nggi yillarda tadbirkorlik kabi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirishga qiziqish ortdi. Bu muammo L.K.Averchenko, V.G.Bulygina, A.L.Juravleva, V.Sh.Kaganova, T.V.Kornilova, A.P.Kornilova, N.V.Lebedeva, P.N.Novikova, L.Ya.Osipova, V.P. Pozdnyakova, B.A.Raizberg, S.D.Reznik, S.K.Roshchina, M.N.Rutkevich va boshqalarning asarlarida ko'tarilgan.

Tadbirkorlik falsafasi, tarixi va nazariyasining fundamental g'oyalari N.A.Berdyayev, S.N.Bulgakov, V.N.Voloshin, B.Z.Vulfov, G.K.Gins, N.Zarubina, M.S.Kagan, V.Korolev, Sh.Maytal, R.Muers, S.G.Strumilin, E.R.Tagirov, E.P.Xorkova, R.Chyuning, L.Yakobov va boshqalarning asarlarida bayon etilgan.

Kichik biznes asoslari va texnologiyalari M.Yu.Alekseyev, S.Ya.Vlasova, L.Yu.Germogenova, Yu.N.Grachev, E.K.Dyachkov, I.Nefedova, D.Ya.Raygorodskiy, M.A.Revinskiy, L.S.Romanova, A.Sidorov, B.Fayfer, S.D.Shatalov, G.A.Yavlinskiy va boshqalar tomonidan o'rganilib, bayon qilingan.

Tadbirkorlar uchun samarali boshqaruv, menejment nazariyasi va amaliyoti V.I.Bovikin, G.Bolt, M.Vudkok, R.S.Galkovich, A.P.Grov, A.P.Egorshina, V.Glushkova, S.V.Zagorodnikov, A.B.Zverinsev, A.M.Zobov, I.I.Zorinskiy, L.A.M. Ya., V.I.Nabokov, R.Salmon, L.B.Sulpovar, A.A.Ogarkov, V.I.Shuvanov, D.Frensis va boshqalarning asarlarida ko'rib chiqilgan.

Tadbirkorlik va kichik biznesning huquqiy va moliyaviy masalalari

⁹ M.B.Artikova. Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish: ped.fanl.bo'yicha dokt.(DSc) diss.avtor. – Namangan., 2020. – 63 b.; Rahmatullaeva D.R. Kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishni takomillashtirish ("Avtomobillarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish" misolida): ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. – T., 2018. – 168 b.; Quvondiqov Sh.O. Xizmat sohalarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari: iqtisodiyot fanl. nomzod. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2008. – 25 b.; Ganiev B.S. O'zbekistonda tadbirkorlik madaniyatini yuksaltirish omillari: fal. fan. bo'yicha falsafa dokt. ... dis. avtor. – T., 2018. – 44 b.; Xudoyberdiev Z.Ya., Xomitov K.Z. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Ilm-Ziyo, 2016. – 419 b.; Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., B.K.G'oyibnazarov B.K. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik – T.: Iqtisodiyot, 2012, Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. – T.: TDIU, 2010. – 267.

M.Yu.Alekseyev, A.N.Belov, V.V.Boisova, S.Z.Jidkoy, I.V.Kislova, O.A.Kurbangaleeva, S.A.Kotlyarova, A.I.Luchenko, N.V.Mitalna, Sh.B. Fayfer va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiqot qilingan.

Kichik biznesni rivojlantirish va yosh talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish masalalari K.R.Abdulhamidov, N.F. Anoxina, D.S.Amiryan, S.T.Bektimisova, S.A.Beshenkov, N.I.Gorodeskaya, V.V.Demidov, V.V.Juravlev, V.Lyubkina, M.L.Nyushenkova, T.V.Obuxova, M.M.Prusak, I.A.Fedorova va boshqalarning asarlarida o'rganilib, ko'rib chiqilgan.

Muhandislik ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdagi pedagogik nazariy hamda amaliy ilmiy tadqiqotlarning yetarli emasligi, bu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyatini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi muhandislik ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy tavsiyalar, metodlar va yo'riqnomalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

muhandislik yo'nalishi talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari mikro o'rganish sikllarini strukturalash asosida takomillashtirish;

texnika fanlarini o'qitish jarayonida talabalarni "startup" loyihalar yaratishga o'rgatishning innovatsion texnologiyasini ijtimoiy, texnik va biznes ko'nikmalarning integrativligi asosida takomillashtirish;

muhandislik yo'nalishi talabalarining tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish modelining mazmunli-metodik bloki mentorlik, konsalting va networking interaktivligi asosida takomillashtirish;

talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi elektronikaga doir fanlarni o'qitish jarayonida ekotizimni strukturlash orqali takomillashtirish;

bo'lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning diagnostik tizimini biznesga maqsadli tayyorlashning produktivligini baholashga doir indikatorlarni ishlab chiqish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida, muhandislik ta'lim sohalari talabalarida, tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo'lib, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo'qon filiali, Farg'ona politexnika instituti, Andijon mashinasozlik instituti, Namangan muhandislik-qurilish instituti hamda Jizzax politexnika institutlarining 485 nafar talabalarini ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini muhandislik ta'lim sohalari talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid ilmiy, metodik, elektron manbalarni qiyosiy-tanqidiy tahlil etish, OTMdagi tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning interfaol pedagogik tajribalarni o'rganish, anketa, suhbat, kuzatish, test, loyihalash, ekspert baholash, tajriba-sinov ishlari natijalarini matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari tadqiqiy benchmarkingga ustuvorlik berish orqali mualliflik “7K” modeliga muvofiq keladigan mikro o‘rganish sikllarini differensial strukturalash asosida takomillashtirilgan;

texnika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni “startup” loyihalar yaratishga o‘rgatishning innovatsion texnologiyasi moslashuvchan, maxsus va biznes ko‘nikmalarning matritsa ko‘rinishiga ega integral integrativligini ta‘minlash asosida “muhandis-tadbirkor”ni simulyatsiyasiga doir kouchingga xos biznes-vaziyatlarni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirilgan;

muhandislik yo‘nalishi talabalarining tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish modelining mazmunli-metodik bloki mentorlik, konsalting va networkingga asoslangan “muhandislik biznesi” kooperatsiyasining interaktivligiga qaratilgan “Sohada tadbirkorlik” elektiv kursini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi propedevtik, amaliy va natijaviy bosqichlarga muvofiq tarzda elektronikaga doir fanlarni o‘qitish jarayonida ekotizimni amalga oshirishning EntroComp modelining adaptiv arxitektonikasini strukturlash orqali takomillashtirilgan;

bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning diagnostik tizimi talabalar korporativlarini yo‘lga qo‘yish, virtual va amaliy firmalarni yaratish, raqamli biznesga maqsadli tayyorlashning produktivligini baholashga doir indikatorlarni ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan “Sxematexnika” nomli darslik va “Amaliy elektronika asoslari” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi ishlab chiqilgan;

texnika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni “startup” loyihalar yaratishga o‘rgatishning innovatsion texnologiyasidan sanoat korxonalarida havo oqimidan elektr energiyasi olish bo‘yicha “startup” loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan;

talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish uchun kouchingga asoslangan biznes vaziyatlar va virtual firmalar simulyatsiyasi yaratilgan;

muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha real biznes vaziyatlarni loyihalash algoritmi ishlab chiqilgan;

ipak qurti urug‘ini jonlantirish uchun elektrotexnologik qurilma yaratish loyihasida EntroComp modeli va uning adaptiv arxitektonikasidan foydalanilgan;

“Bronxlarni himoyalovchi nimcha” (innovatsion davolash nimchasi) loyihasi doirasida raqamli biznesga tayyorlashning diagnostik tizimi va indikatorlari amaliyotda qo‘llanilgan;

tadqiqot doirasida “Kompetensiyalarni aniqlash va qiyoslash dasturi” yaratilib, unga elektron hisoblash mashinalari uchun dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma (№ DGU 27387) olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning mualliflik “7K” modeli va “muhandis-tadbirkor” simulyatsiya modeli asoslab berilganligi, texnika fanlarini o‘qitishda ijtimoiy, texnik va biznes ko‘nikmalarining integratsiyasini ta’minlovchi metodik tizim yaratilganligi, bo‘lajak muhandislarning tadbirkorlikka tayyorgarlik darajasini baholash uchun maxsus indikatorlar va baholash mezonlari ishlab chiqilganligi, elektronikaga doir fanlarni o‘qitishda tadbirkorlik muhitini (ekotizimini) shakllantirishning EntroComp modeli va uning adaptiv arxitektonikasi ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyat ishlab chiqilgan metodlar va texnologiyalarning real ta’lim jarayoniga hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirishda foydalanilganligi, muhandislik sohasi talabalarining kasbiy tayyorgarlik ko‘nikmalari bilan birga, ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda mustaqil biznes yuritishga tayyorlash imkoniyati oshirilganligi, muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha biznes-vaziyatlarni loyihalashning algoritmi ishlab chiqilganligi, muhandislik yo‘nalishi talabalar uchun o‘quv mashg‘ulotlari bo‘yicha kouchingga asoslangan biznes-vaziyatlar va virtual firmalar simulyatsiyasi ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhandislik yo‘nalishi talabalarining tadbirkorlikka oid kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari tadqiqiy benchmarkingga ustuvorlik berish orqali mualliflik “7K” modeliga muvofiq keladigan mikro o‘rganish sikllarini differensial strukturalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar va takliflar “Sxematexnika” nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 noyabrda 491-son buyrug‘i asosida berilgan №491554-sonli nashr ruxsatnomasi);

texnika fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarni “startup” loyihalar yaratishga o‘rgatishning innovatsion texnologiyasi moslashuvchan, maxsus va biznes ko‘nikmalarining matritsa ko‘rinishiga ega integral integrativligini ta’minlash asosida “muhandis-tadbirkor”ni simulyatsiyasiga doir kouchingga xos biznes-vaziyatlarni maqsadli loyihalash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan S-PM-22-raqamli “Sanoat korxonalari yuqori va o‘rta bosimli ventilatorlarida tashqariga uzatilayotgan havo oqimidan elektr energiyasi olish innovatsion qurilmasi” nomli startup davlat grant loyihasi doirasida belgilangan

vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirining 2021-yil 15-oktabrdagi 291-son buyrug'i, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filialining 2021-yil 30-dekabrda №171-sonli buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlar markazi 2025-yil 6-mart № 02/01-01-88-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining tadbirkorlikka oid kompetensiyalarini egallash darajasini oshirishga erishilgan;

muhandislik yo'nalishi talabalarining tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish modelining mazmunli-metodik bloki mentorlik, konsalting va networkingga asoslangan "muhandislik biznesi" kooperatsiyasining interaktivligiga qaratilgan "Sohada tadbirkorlik" elektiv kursini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga oid tavsiya va takliflar "Elektrotexnika, elektronika va elektr o'tkazgichlar" nomli nomli darsligi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug'i asosida berilgan №55401-sonli nashr ruxsatnomasi);

bo'lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi propedevtik, amaliy va natijaviy bosqichlarga muvofiq tarzda elektronikaga doir fanlarni o'qitish jarayonida ekotizimni amalga oshirishning EntroComp modelining adaptiv arxitektonikasini strukturlash orqali takomillashtirishga oid tavsiyalardan "Ipak qurti urug'ini jonlantirish va ipak qurti pillalarini yetishtirish jarayonlari uchun elektrotexnologik qurilma yaratish" loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan "2022-2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tamonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi"dagi 211-bandiga asosan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filialining 2022-yil 21-sentabrdagi №01/9-05-161-sonli buyrug'i);

bo'lajak muhandislarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning diagnostik tizimi talabalar korporativlarini yo'lga qo'yish, virtual va amaliy firmalarni yaratish, raqamli biznesga maqsadli tayyorlashning produktivligini baholashga doir indikatorlarni ishlab chiqish va o'qitish jarayoniga transformatsiyalash asosida takomillashtirishga doir tavsiyalardan "Bronxlarni himoyalovchi nimcha" (Innovatsion davolash nimchasi) nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarorining 7-ilovasi bilan tasdiqlangan "2022-2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tamonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi"dagi 212-bandiga asosan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filialining 2022-yil 21-sentabrdagi №01/9-05-161-sonli buyrug'i). Natijada, muhandislik sohasi talabalarining kasbiy tayyorgarlik ko'nikmalari hamda tadbirkorlikka oid kompetensiyalari rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishdagi zamonaviy talablarni aniqlash imkonini oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 41 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, 2 ta monografiya, 2 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta o'quv- uslubiy qo'llanma,

2 ta uslubiy tavsiya, 1 ta DGU, 2 ta mualliflik obyekti uchun guvohnoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, 12 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 230 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ishning maqsad va vazifalari, ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslanib, olingan asosiy natijalar va amaliyotga joriy etish to'g'risidagi ma'lumotlar qisqacha tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Muhandislik ta'limi yo'nalishi talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida muhandislik ta'limi yo'nalishi talabalarida tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari va xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tadbirkorlik ta'limi bo'yicha tajribalari va ularning qiyosiy tahlili hamda O'zbekiston Respublikasi OTM muhandislik ta'lim sohalarida tadbirkorlik ta'limi holati va muammolari bayon qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, universitetlar to'rt guruhga bo'lingan:

- tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirmagan universitetlar;
- asosiy ta'lim dasturlariga kiritilgan individual fanlar va modullarni taqdim etadigan universitetlar (ularning shaxsiy ilmiy ishlanmalar yo'q);
- ixtisoslashtirilgan malaka oshirish va (yoki) qayta tayyorlash dasturlari shaklidagi tadbirkorlik ta'limini amalga oshiruvchi tarkibiy bo'linmalariga ega bo'lgan oliy o'quv yurtlari;
- tadbirkorlik ta'limiga kompleks yondashuvga ega universitetlar, shu jumladan bakalavriat va magistratura dasturlarida.

Tahlil natijalariga asosan birinchi va ikkinchi guruhlariga 80 % dan ortiq, oxirgilarga esa 5 % dan ko'p bo'lmagan universitetlar kirganligi aniqlandi.

Xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijasida quyidagi modellarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- AQSh tajribasi (MIT, Stenford): Tadbirkorlik ta'limi “Design Thinking” (Dizayn-tafakkur) va startup-mentalitetiga asoslangan. 1600 dan ortiq universitetlarda 2200 dan ortiq maxsus kurslar mavjud bo'lib, muhandislik yechimlarini tijoratlashtirish asosiy ustuvorlik hisoblanadi.

- Yevropa tajribasi (TUM, Tartu): Yevropa Ittifoqi ta'lim siyosatida tadbirkorlik ustuvor yo'nalishdir. ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) tizimi orqali nazariy va amaliy modullar integratsiyalashgan.

- Osiyo tajribasi (Xitoy, Yaponiya): Xitoyning Sinhua universiteti texnologik innovatsiyalarni tijoratlashtirish bo'yicha 10 dan ortiq maxsus kurslarni taklif etadi. Bu yerda asosiy e'tibor texnik g'oyani amaliy biznesga aylantirishga qaratilgan.

Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda OTMlar nafaqat bilim berish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi subyektlar sifatida

faoliyat yuritadi. Tadqiqiy benchmarking natijasida aniqlangan xorijiy OTMlarning eng yaxshi amaliyot ko'rsatkichlari 1-jadvalda umumlashtirildi:


1-jadval.

Xorijiy OTMlarda tadbirkorlik ta'limi modellarining benchmarking ko'rsatkichlari

Benchmarking indikatorlari	AQSh (MIT, Stenford)	Yevropa (TUM, Tartu)	Osiyo (Tokio, Xitoy)
Moliyaviy mustaqillik	Budjetdan tashqari mablag'lar ulushi 52% ni tashkil etadi.	Grantlar va sanoat klasterlari bilan hamkorlik ustuvor.	Yaponiya OTMlarida tadbirkorlikdan keladigan daromad 57% gacha.
Ta'lim mazmuni	1600 dan ortiq universitetda 2200 dan ortiq maxsus kurslar mavjud.	"European Credit Transfer" (ECTS) asosidagi nazariy va amaliy modullar.	Asosiy e'tibor tadbirkorlik qobiliyatini o'rgatish va malaka oshirishga qaratilgan.
Integratsiya darajasi	"Design Thinking" va startup-mentalitet.	"Universitet-3.0" konsepsiyasi va texnologiyalar transferi.	Texnik yo'nalishlarda marketing va simulyatsiya muhitlari.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribada tadbirkorlik ta'limi shunchaki iqtisodiy bilim berish emas, balki muhandislik yechimlarini tijoratlashtirishga yo'naltirilgan kompleks ekotizim sifatida namoyon bo'ladi.

Xitoy universitetlarida bir necha o'n yillarda tadbirkorlik ta'limini rivojlantirishda ba'zi yutuqlarga erishildi. Biroq, tadbirkorlik ta'limi bo'yicha hali ham muammolar mavjud (1-rasm).



1-rasm. Xitoy universitetlarida tadbirkorlik ta'limi muammolari

Respublikamizda aholini, ayniqsa yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi muhandislik ishi

ta'lim sohalarida talabalarning faqat bir tomonlama texnik kompetensiyalarini rivojlantirishga ahamiyat berilib, ixtisoslik hamda tanlov fanlari o'quv dasturlarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar ko'zda tutilmagan. Yuqori bosqichda o'tiladigan qisqa kurs shaklidagi "Soha iqtisodiyoti va menejmenti" umumkasbiy o'quv fanida texnik soha bo'yicha tadbirkorlik ta'limi va talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari rejalashtirilmagan.


Ma'lumki, keyingi paytlarda, talabalarni dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarida tadbirkorlik faoliyatini o'rganishlari va shug'ullanishlariga uchun imkon yaratish maqsadida OTMlarda "Biznes inkubator", "Innovatsion markaz", "Texnopark", "IT markaz" xizmat ko'rsatish subyektlarini hamda "Spin-off" va boshqa unitar korxonalarni tashkil qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Biroq, muhandislik ta'lim yo'nalishlarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda qator (tadbirkorlik ko'nikmasi yo'qligi, "tadbirkorlik - bu faqat iqtisodchilarning ishi" degan stereotip mavjudligi va b.) muammolar saqlanib qolmoqda.

Jamiyatda yoshlar o'rta, kasb-hunar va hatto oliy ta'limni bitiradi hamda mustaqil faoliyat boshlaydi, ammo mehnat bozorida muammolarga duch keladi va ishsizlikni keltirib chiqaradi, sababi zarur kompetensiyalarga ega emasligidir.

Dissertatsiyaning **"Muhandislik ta'limi yo'nalishi talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari"** deb nomlangan ikkinchi bobida Hard skills, Soft skills va tadbirkorlik kompetensiyalarini talabalarda shakllantirish muhitlari hamda rivojlantirish texnologiyasining algoritmi, muhandislik yo'nalishi talabalarining tadbirkorlikka oid kompetensiyalarni mazmuni va talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari, texnologiyasi va modeli asoslab berilgan.

Dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarida ta'limning asosiy e'tibori XXI-asr talabalariga nima uchun tadbirkorlikni o'rgatish kerakligiga emas, balki qanday o'rgatish kerakligiga qaratilgan.

Mamlakatimizning OTMda muhandis kadrlar tayyorlashning an'anaviy tizimining sxemasi 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. An'anaviy kadrlar tayyorlash tizimining sxemasi

Rasmdagi punktir chiziqlar kadrlar qo'nimsizlikni ifodalab, hozirgi ta'limning eng og'riqli masalalaridan biridir.

Aslida mehnat bozoriga OTM muhandis-bitiruvchilarini "ish izlovchilar" sifatida emas, balki "ish o'rinlari yaratuvchilari" sifatida tayyorlab yetkazishi juda muhimdir.


Muhandislik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida ta'limning

tadbirkorlikka yoʻnaltirilgan shakllarining davlat (jamiyat) uchun ijobiy tomonlari quyidagicha:

- birinchidan, tadbirkorlikka yoʻnaltirilgan OTM bitiruvchisi nafaqat oʻz-oʻzini ish bilan taʼminlaydi, balki oʻnlab ish oʻrinlariga ega boʻlgan ishlab-chiqarish yoki xizmat koʻrsatish korxonasini tashkil qila olish koʻnikmalariga ega boʻladi;

- ikkinchidan, mustaqil qaror qabul qilish va muhandislik muammolari yechimini topish koʻnikmalariga ega boʻlib, mehnat bozorida mutaxassis sifatida oʻz ish oʻrnini uzoq vaqt saqlab qola olish imkoniyatiga ega boʻladi.


3-rasmda tadbirkorlikka yoʻnaltirilgan kadrlar tayyorlash tizimining sxemasi keltirilgan.



3-rasm. “Muhandis –tadbirkor” kadrlar tayyorlash tizimi

Zamonaviy muhandis nafaqat professional texnik koʻnikmalarga (Hard skills), balki shaxslararo muloqot va ijodiy fikrlash kabi yumshoq koʻnikmalarga (Soft skills) ham ega boʻlishi shart. Muhandislik taʼlimida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ushbu koʻnikmalarning integratsiyalashgan modelini shakllantirish zarur.

Agar, talabada soft skills, business skills va hard skillslarning asosiy elementlari mukammal darajada rivojlanib, ular oʻzaro integrallashgan boʻlsa (4-rasm qarang), bunday holatni “muhandis-tadbirkor” modeli deb atash mumkin.




4-rasm. Soft skills, business skills va hard skills integrallashgan holat.
Muhandis-tadbirkor modeli

Tadqiqot doirasida EntreComp modelidagi 15 ta tayanch kompetensiyalar uchta asosiy soha doirasida muhandislik sohasiga quyidagicha adaptatsiya qilindi:

1. “G‘oyalar va imkoniyatlar” sohasi (Muhandislik kreativligi);
2. “Resurslar” sohasi (Texnologik potensialni boshqarish);
3. “Harakat” sohasi (Injenerlik loyihalarini tijoratlashtirish).

Ushbu ishlab chiqilgan “Adaptiv arxitektonika” muhandislik talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini shunchaki nazariy emas, balki texnologik-amaliy xarakterga ega ekanligini belgilab beradi.

Talabalarda tadbirkorlik fazilatlarini shakllantirish olti bosqichdan iborat bo‘lib, bu jarayon sxemasi 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Talabalarda tadbirkorlik fazilatlarini shakllantirish bosqichlari

Tadqiqot doirasida muhandislik yo‘nalishi talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari tadqiqiy benchmarkingga ustuvorlik berish orqali takomillashtirildi. Bu jarayonda ilg‘or xorijiy tajribalarni shunchaki ko‘chirish emas, balki ularni milliy ta‘lim muhitiga moslashtirish va mikro o‘rganish sikllarini differensial strukturalash asosiy omil sifatida belgilandi.

Mazkur yondashuv asosida muhandis-tadbirkorni shakllantirishning mualliflik “7K” modeli ishlab chiqildi. Ushbu model talabaning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini kompleks rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, quyidagi 7 ta asosiy komponentni (K-omillarni) o‘z ichiga oladi:

Tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning “7K” modeli sxemasi:

1. Kreativ izlanuvchanlik – imkoniyatlarni izlash va tashabbuskorlik;
2. Kouching – liderlik, yetakchilik va jamoani rivojlantirish;
3. Ko‘nikuvchanlik – o‘zgarishlarga moslashish va riskni boshqarish;
4. Kommunikativlik – muloqot va hamkorlik qilish;
5. Koordinatsiya – umumiy boshqaruv va jarayonlarni tartibga solish;
6. Konkurensiya bardoshligi – marketing va raqobatga tayyorlik;
7. Konseptuallik – ijodkorlik va innovatsion g‘oyalar yaratish.

Ushbu modelning pedagogik-psixologik imkoniyatlari shundaki, u talabada faqat iqtisodiy bilimni emas, balki muhandislik yechimlarini tijoratlashtirishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantiradi. Modelga muvofiq, o‘quv jarayoni propedevtik,

amaliy va natijaviy bosqichlarga ajratilib, har bir bosqichda mikro o'rganish sikllari orqali talabanning tadbirkorlikka oid indikatorlari (tashabbuskorlik, riskni boshqarish va h.k.) muntazam ravishda oshirib boriladi.

Tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Talabalarning qiziqishlari va bozor talablarini aniqlash;
2. Onlayn platformalar va virtual simulyatsiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
3. Tadbirkorlik elementlarini texnik fanlar tarkibiga singdirish;
4. Real biznes-keyslar va loyihalar ustida ishlash;
5. Doimiy qayta aloqa asosida o'quv dasturini takomillashtirish.

“Integral integrativlik” tamoyiliga tayanib, talabanning kasbiy o'sish traektoriyasini belgilovchi ko'nikmalar matritsasi ishlab chiqish mumkin. Ushbu matritsa talabanning muhandislik salohiyatini tadbirkorlik amaliyoti bilan mantiqiy bog'lovchi uch o'lchovli (3D) tizimni ifodalaydi.

Matritsa “muhandis-tadbirkor” shaxsining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uchta asosiy vektor bo'yicha shakllantiriladi:

- Loyihalash, tahlil, texnologik jarayonlarni boshqarish (**vektor A**. Hard skills - texnik mukammallik);

- Kommunikatsiya, jamoaviy liderlik, adaptivlik (**vektor B**. Soft skills - shaxsiy samaradorlik);

- Moliyaviy modellashtirish, startup-menejment, marketing (**vektor C**, Business skills - bozorga yo'naltirilganlik).

Matritsaning kesishish nuqtalarida talabanning “Innovatsion kompetentlik” darajasi aniqlanadi. Masalan, Hard va Business ko'nikmalari kesishgan joyda “Mahsulotni tijoratlashtirish qobiliyati”, Soft va Business kesishgan joyda esa “Networking va investitsiya jalb qilish” ko'nikmasi yuzaga keladi.

Tadqiqotimizda muhandis-tadbirkorning kompetensiya profili an'anaviy chiziqli yondashuvdan farqli o'laroq, uch o'lchovli matritsa ko'rinishida shakllantirildi (2-jadval). Ushbu matritsa Hard (maxsus), Soft (moslashuvchan) va Business (biznes) ko'nikmalarining o'zaro ta'sir maydonini belgilaydi.

2-jadval.

Muhandis-tadbirkor kompetensiyalarining integrativ matritsasi


Ko'nikmalar guruhi	Komponentlar (Matritsa elementlari)	Muhandis-tadbirkor shaxsidagi funksiyasi
Maxsus (Hard skills)	Konstruktorlik, texnologik modellashtirish, IT-savodxonlik, muhandislik tahlili.	Loyihaning texnik mukammalligi va xavfsizligini ta'minlash (baza).
Moslashuvchan (Soft skills)	Kreativlik, kommunikativlik, liderlik, jamoada ishlash, adaptivlik.	Muhandislik g'oyasini jamoaga taqdim etish va o'zgaruvchan muhitga moslashish (mexanizm).
Biznes (Business skills)	Moliyaviy rejalashtirish, marketing, startup-menejment, investitsiya tahlili.	Texnik yechimni tijoratlashtirish va bozor ehtiyojiga muvofiqlashtirish (Natija).

Muhandis-tadbirkorning kompetensiya profili an'anaviy tadbirkordan farqli o'laroq, texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Tadbirkorlik kompetensiyalari — bu shaxsiy fazilatlar, bilim va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, ular muvaffaqiyatli biznes yechimlarini topish imkonini beradi.

Asosiy kompetensiyalar guruhiga quyidagilar kiradi:

- Yangi texnik g'oyalarni yaratish va ularni bozor talabiga moslashtirish (kreativlik, yangilik yaratish);
- Imkoniyatlarni izlash, tavakkalchilikni baholash va qaror qabul qilish;
- Jamoani boshqarish, yetakchilik va hamkorlik o'rnatish.

Muhandis-tadbirkorni shakllantirishning "7K" modeli komponentlari asosida muhandislik yo'nalishi talabalari o'rtasida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli taklif qilindi (6-rasm).



6-rasm. Muhandislik yo'nalishi talabalari o'rtasida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Muhandislik yo'nalishi talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli – bu texnik bilimlar bilan birga, biznes tafakkuri, innovatsion fikrlash va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirgan yondashuvdir.

Dissertatsiyaning "Texnika fanlarini o'qitishda talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi" deb nomlangan uchinchi bobida talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini aniqlash va rivojlantirish metodikasi,

talabalarga elektrotexnika, elektronika va mexatronika sohasida tadbirkorlik g'oyasini shakllantirish hamda tanlash usullarini va marketing tadqiqoti o'tkazishni o'rgatish metodikalari ishlab chiqildi.

Muhandislik ishi ta'lim sohasi talabalarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllanganlik darajasini hamda rivojlanishini o'rganish texnologiyasi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Talabaning tadbirkorlikka qobiliyati yoki layoqati bor yoki yo'qligini aniqlash;
2. Talabada tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllanganlik holatini aniqlash;
3. Talabada qaysi tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligini aniqlash.

Boshlang'ich tadqiqot natijalari bo'yicha ishtirokchi talabalardan tadbirkorlik uquvi yo'qlari 14 foizni, tadbirkorlikka loqaydlari 12 foizni, tadbirkorlikka biroz layoqati borlari 55 foizni, tadbirkorlikka to'la layoqatlilari 19 foizni tashkil qilishi aniqlandi.

Muhandislik ta'limi yo'nalishi talabalarining tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy, uzoq davom etadigan va akademik ma'ruza uslubi bugungi kunda o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Buning o'rniga axborotni kichik, mantiqan tugallangan va amaliyotga yo'naltirilgan "mikro o'rganish sikllari" ko'rinishida uzatish metodikasi ishlab chiqildi.

Mikro o'rganish - bu o'quv materialini 5-15 daqiqalik intensiv bloklarga ajratish orqali talabaning kognitiv yuklamasini kamaytirish va diqqatni jamlash ko'rsatkichini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. Tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishda ushbu sikllar quyidagi sxema asosida differensial strukturalanadi:

Mikro o'rganish siklining 4 bosqichli modeli:

1. Muhandislik sohasidagi aniq bir biznes-muammo (masalan, "Loyiha tannarxini 20% ga qanday kamaytirish mumkin?") yoki keysni o'rtaga tashlash (2-3 daqiqa);
2. Muammoning yechimi uchun zarur bo'lgan nazariy bilimni (masalan, tejamkor ishlab chiqarish - tejamkorlik usullari) intensiv shaklda berish mikro-kontent uzatish (5-7 daqiqa);
3. Talaba olgan bilimni darhol mini-topshiriq yoki simulyator orqali sinab ko'radi (5-10 daqiqa);
4. Natijani darhol baholash va keyingi sikl bilan bog'lash (2-3 daqiqa).

Talabalarning muhandislik g'oyalarini tijoratlalashtirish jarayonida mentorlik va konsalting interaktiv munosabatlar tizimi sifatida quyidagi bosqichma-bosqich algoritm asosida amalga oshiriladi:

1. Diagnostika va maqsadni belgilash bosqichi;
2. Loyiha mazmunini boyitish (konsalting);
3. Amaliy prototip yaratish va mentorlik ko'magi;
4. Tijoratlalashtirish va networking.

Talabaning muhandislik g'oyasini tijoratlalashtirishdagi mentoring asosiy rollari:

- Yo'l ko'rsatuvchi;

- Ekspert (Expert);
- Bog'lovchi.

Elektronika fanlari misolida EntreComp xalqaro modeliga asoslangan metodika quyidagi uchta uzviy bog'liq bosqich orqali amalga oshiriladi:


1. G'oya generatsiyasi va kognitiv tayyorgarlik (tayyorlov bosqichi);
2. Prototiplash va biznes-model integratsiyasi (loyihalash bosqichi);
3. Ekotizimda sinov va taqdimot (tijoratlashtirish bosqichi)

Yakuniy bosqichda yaratilgan mahsulot “laboratoriya sharoiti”dan “real bozor muhiti”ga olib chiqiladi.

Yaratilgan mahsulot (aqlli datchik, mikrosxema yoki avtomatlashtirilgan tizim) oliy ta'lim, ishlab chiqarish va biznes kooperatsiyasi (“Muhandislik biznesi” uchburchagi) doirasida sinovdan o'tkaziladi.

